



OLIY TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISHNING USTUVOR YO'NALISHHLARI

Baymirzaev Dilmurod Nematovich

Namangan davlat universiteti “Menejment”
kafedrasи dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

dilnazdon@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lismida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni, uning mohiyati va ahamiyati tahlil etiladi. Oliy ta'lismu muassasalarida strategik va taktik qarorlarning qabul qilish ta'lism sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda ilmiy-akademik faoliyat samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada boshqaruv qarorlarining turlari – strategik, tashkiliy, moliyaviy va akademik qarorlar – o'rganilib, ularning universitet menejmentidagi roli yoritib berilgan. Qaror qabul qilish jarayonining asosiy bosqichlari, jumladan, muammo va imkoniyatlarni aniqlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, qarorlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lism, boshqaruv qarorlari, strategik qarorlar, menejment, ta'lism sifati, innovatsion yondashuv, universitet boshqaruvi.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс принятия управлеченческих решений в системе высшего образования, его сущность и значение. Отмечается, что принятие стратегических и тактических решений в высших учебных заведениях служит повышению качества образования, обеспечению финансовой стабильности и повышению эффективности научно-академической деятельности. В статье также рассматриваются типы управлеченческих решений – стратегические, организационные, финансовые и академические – и освещается их роль в управлении университетом. Рассмотрены основные этапы процесса принятия решений, включая выявление



проблем и возможностей, анализ данных, разработку решений и механизмов их реализации.

Ключевые слова: высшее образование, управленческие решения, стратегические решения, менеджмент, качество образования, инновационный подход, управление вузом.

Annotation. This article analyzes the process of managerial decision-making in the higher education system, its essence and significance. It is noted that the adoption of strategic and tactical decisions in higher education institutions serves to improve the quality of education, ensure financial stability and increase the effectiveness of scientific and academic activities. The article also examines the types of management decisions – strategic, organizational, financial, and academic – and highlights their role in university management. The main stages of the decision-making process are considered, including identification of problems and opportunities, data analysis, development of solutions and mechanisms for their implementation.

Keywords: higher education, management decisions, strategic decisions, management, quality of education, innovative approach, university management.

Oliy ta'lim tizimida boshqaruv qarorlarini qabul qilish – bu murakkab jarayon sifatida oliy ta'limning strategik va taktik maqsadlariga erishishning muhim tashkiliy mexanizmlari va usullarini tadbiq etishni talab qiladi. Oliy ta'lim tizimida qabul qilinadigan strategik qarorlar, avvalo, ta'lim sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ilmiy-akademik faoliyat samaradorligini ko'tarish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish murakkab va istiqbolli jarayon sifatida ta'lim berish sifati, moliyaviy barqarorlik va strategik taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Universitetlarda qaror qabul qilish jarayoni ko'p jihatdan biznes tashkilotlariga o'xshash bo'lsa-da, u akademik erkinlik, ilmiy tadqiqotlar va jamiyat manfaatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida qabul qilinadigan qarorlar oliygoh menejment tizimining turli boshqaruv darajalarida universitet yoki institut kengashi, fakultet

kengashi va kafedra majlislarida qabul qilinib, ular o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiytadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, innovatsion, ustoz-shogird, ma'muriy, ijtimoiy va moliyaviy sohalarni qamrab oladi. Boshqaruv qarorlari uzoq muddatli strategiyalar, o'quv jarayoni faoliyati va ta'lim muassasasining umumiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab, quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi.

- 1) Raqobatbardosh va strategik ta'lim tizimini shakllantirish;
- 2) Ta'lim berish sifatini milliy va xalqaro darajaga oshirish;
- 3) Talabalarning sifatlari ta'lim olishlari, yetuk raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi, professor-o'qituvchilarining pedagogik faoliyati, ilmiytadqiqot va izlanishlar olib borish uchun qulay muhit va shart-sharoit yaratish;
- 4) Ta'lim muassasasining akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligi hamda barqarorligini ta'minlash;
- 5) Ta'lim berishda, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, boshqaruv qarorlarini qabul qilish — bu tashkilot yoki jamoa maqsadlariga erishish uchun yo'naltirilgan strategiyalarni tanlash va amalga oshirish jarayoni deb ta'riflash mumkin bo'ladi. Ushbu jarayon murakkab bo'lib, turli bosqichlarni: 1) ma'lumot toplash, 2) tahlil qilish, 3) variantlarni ko'rib chiqish va 4) eng muvofiq qarorni qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining mazmuni quyidagi ketma-ketlikda va maqsadlarga qaratiladi. Ushbu ketma-ketlik va maqsadlar 1-rasmda o'z ifodasini topgan:

Muammo va imkoniyatni aniqlash	• Ta’lim dasturlarini takomillashtirish, moliyaviy ta’minotni yaxshilash yoki xalqaro hamkorlikni rivojlantirish
Ma’lumot to‘plash va tahlil qilish	• Maxsus tadqiqotlar, reytinglar, talabalar va professor-o‘qituvchilar fikrimi o‘rganish
Variantlarni ishlab chiqish	• Yangi ta’lim yo‘nalishlarini ochish yoki elektron ta’lim platformalarini joriy etish
Qaror qabul qilish	• Universitet rahbariyati, fakultet kengashlari yoki rektorat tomonidan qarorlarni qabul qilish
Qarorni amalga oshirish	• Loyihalarni boshqarish, kadrlar tayyorlash va moliyaviy resurslarni taqsimlash
Natijalarni baholash va nazorat qilish	• Talabalar natijalari va akademik jarayonlar monitoringi qilish

1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruva qarorlarini qabul qilish jarayoni

oliy ta’lim dasturlarini takomillashtirish, ta’lim muassasasining moliyaviy ta’minotni yaxshilash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va boshqalar bo‘yicha muammolar yoki imkoniyatlar aniqlash;

qarorlarni qabul qilish oliy ta’lim muassasasi faoliyatini tahlil etishda talabalar va professor-o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari va munosabarlarini o‘rganish asosida zarur ma’lumotlar to‘plash va tahlil etish;

oliy ta’lim muassasasida yangi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish, raqamli ta’lim platformalarini yo’lga qo’yish va boshqa yo‘nalishlarni ishlab chiqish;

universitet kengashi, fakultet kengashlari yoki rektorat tomonidan qaror qabul qilish, ta’lim loyihalarini boshqarish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, moliyaviy resurslarni taqsimlash va boshqalar bo‘yicha qarorni amalga oshirish;

talabalar baholash natijalari va akademik jarayonlar monitoringi, ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida erishilgan yutuqlar asosida natijalar baholash, nazorat qilish va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlari o’zining strategik, tashkiliy, moliyaviy va o’quv maqsadlaridan kelib chiqib quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

strategik qarorlar – oliy ta’lim muassasasida yangi fakultetlar, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish, ilmiy markazlarni tashkil etish, oliy ta’lim muassasasinig milliy va xalqaro reytinglardagi pog‘onalarini oshirish, ilmiytadqiqotlar uchun davlat va xalqaro grantlarini jalg qilish;

tashkiliy qarorlar – oliy ta’lim muassasasiga malakali kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish, professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, universitet boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish va takomillashtirish, boshqaruv, o‘quv va moliyaviy jarayonlarni raqamlashtirish va boshqalar.

Moliyaviy qarorlar – moliyaviy mablag‘larni shakllantirish va budgetlashtirish, moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, to‘lov-kontrakt summalarini belgilash, xalqaro ta’lim grantlarini jalg qilish, xo‘jalik sharhnomalarini tuzish va boshqalar.

O‘quv-uslubiy (akademik) qarorlar – jahoning ilg’or va yetakchi oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan yangi fanlarni joriy etish, talabalar uchun qo‘sishma o‘quv-amaliy kurslar va professor-o‘qituvchilar uchun stajirovka va almashinuv dasturlarini tashkil etish, talabalar bilimini baholash tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasasi boshqaruv tuzilmasining turli bo‘g‘inlari o‘z vakolati va funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda strategik va taktik qarorlarni qabul qilishda ishtirok etadilar. Masalan: oliy ta’lim muassasasi rektori va soha prorektorlari – oliygohning yaqin va uzoq istiqbolda umumiy rivojlanish strategiyasini belgilasalar, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari – o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot, ustoz-shogird, ma’naviy-ma’rifiy va boshqa akademik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni amalga oshirish bilan bog‘liq joriy qarorlarni qabul qiladi. Professor-o‘qituvchilar – o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni shakllantiradi. Talabalar va ularning uyushmalari – talabalar manfaatlarini himoya qiladi. Homiylar va davlat organlari – oliy ta’lim muassasasining moliyaviy va tashkiliy masalalariga ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishga bo‘lgan zarurat muassasa faoliyatidagi quyidagi muammolarning vujudga kelishi va amal qilishi bilan bog‘lash mumkin. Masalan: o‘quv sohasi va tashkiliy-boshqaruv tizimidagi qarorlarning mazmuni o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar; budgetlashtirish va moliyaviy ta’mindagi cheklolvar; ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga tezkor moslashish zarurati, xalqaro ta’lim standartlariga asosan o‘quv jarayonlarini tashkil etish va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda istiqbolli rejalashtirish, yangicha yondashuvlar va jamoaviy tarzda qaror qabul qilish muhim o‘rin tutadi.

Oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv jarayonida qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish markaziy o‘rinni egallaydi. Qarorlar, o‘zida muassasaning yo‘nalishi, strategiyasi va har qanday muammolarni hal etish mexanizmlarini qamrab olgan holda, uning samaradorligi va raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi.

Boshqaruvda qarorlarni qabul qilishning zarurligining asosiy sabablarini quyidagilar orqali ifodalash mumkin:

1. Strategik yo‘nalishni belgilash: qarorlar tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari va strategik rejalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali rahbariyat kelajakda qanday yo‘nalishda harakat qilishini va qanday ustuvorliklarni qo‘llash kerakligini belgilaydi.

2. Muammolarni hal qilish: biznes va tashkilot kabi oliy ta’lim muassasalari ham o‘z faoliyati davomida turli muammolar va murakkab vaziyatlarga duch keladi. Qarorlar orqali muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni samarali hal qilish yo‘llarini ishlab chiqishga imkon beradi.

3. Resurslarni samarali taqsimlash: moliyaviy, moddiy, mehnat va vaqt resurslarining cheklanganligi sababli, ularni optimal ravishda taqsimlash zaruratinini keltirib chiqaradi. Qarorlar orqali mayjud va qo‘lga kiritiladigan resurslar qanday yo‘nalishda va qancha miqdorda sarflanishi aniqlanadi, bu esa muassasaning umumiy samaradorligiga ta’sir qiladi.

4. Oliy ta’lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishda muassasasining har bir bo‘limi, fakulteti, xodimlari, professor-o‘qituvchilari va talabalarning vazifalari, maqsadlari va ular vazifalarini muvofiqlashtirish uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilish katta ahamiyat kasb etadi. Bu holat umumiy oliy ta’lim muassasasi faoliyatining muvofiqligi va birlashgan tarzda amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

5. O‘zgaruvchan muhitga tezkorlik bilan moslashish – bu oliy ta’lim muassasasini tashqi va ichki muhitdagi o‘zgarishlarga tezkor ravishda moslashishi, operativ va taktik qarorlar qabul qilish asosida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va raqobatbardoshlikni saqlash imkonini beradi.

6. Oliy ta’lim muassasasi yo‘liqishi mumkin bo‘lgan risklarni kamaytirish: qarorlarni qabul qilish jarayonida ehtimoliy xatoliklar va risklarni baholash muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri va tahlilga asoslangan qarorlar orqali risklarni oldindan aniqlash, ularni minimallashtirish mumkin bo‘ladi.

Demak, boshqaruvda qarorlarni qabul qilish zarurligi tashkilotning umumiy strategiyasini belgilash, resurslarni optimal taqsimlash va dinamik o‘zgaruvchan muhitga tezkor moslashish imkoniyatini yaratadi. To‘g‘ri qabul qilingan va amalga oshirilgan qarorlar, o‘z navbatida, muassasaning barqaror rivojlanishi, samaradorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, oliy ta’lim muassasalarida samara boshqaruvning eng asosiy vazifalaridan biri - bu oliygojni muvaffaqiyatga olib boradigan oqilona qarorlar qabul qilish hisoblanadi. Boshqaruv qarorlari uzoq muddatli strategiyalarni shakllantirish, oliy ta’lim muassasalarining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab, uning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasasi menejment tizimida innovatsion yondashuv va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish asosida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish oliy ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

1. Oliy ta’lim muassasalarining o‘z strategik rivojlanish rejalarini va maqsadlarini aniq belgilash hamda ularni milliy va xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish;

2. Universitetlarda zamonaviy menejment texnologiyalaridan, jumladan, raqamli transformatsiya va sun'iy intellektdan foydalangan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini rivojlantirish;
3. Oliy ta'lif muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun grantlar, xususiy sektor investitsiyalari va xalqaro loyihalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish;
4. Oliy ta'lif muassasasi boshqaruvida professor-o'qituvchilar, talabalarning fikrini inobatga olish, shaffof va ishonchli boshqaruv muhitini yaratish;
5. Ta'lif sifatini oshirish va ilg'or tajribalarni joriy etish maqsadida nufuzli xalqaro oliy ta'lif muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash;
6. Professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy grantlar va nashrlar bo'yicha motivatsiya tizimini kuchaytirish;
7. Talabalar va o'qituvchilar uchun zamonaviy ta'lif texnologiyalari, innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish orqali oliy ta'lifning sifatini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Тысячникова Н. А., Юденков Ю. Н. Стратегическое планирование в коммерческих банках: концепция, организация, методология: учебное пособие. – “КНОРУС: ЦИПСиР”, 2013 г.
2. Tursunov F.U. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarini amalga oshirish usullari va vositalari amalga oshirish usullari va vositalari // Journal of marketing, business and management (JMBM) / SJIF factor: 5.57.
3. K.Shaposhnykov, S.Filyppova, V.Lagodiienko, D.Krylov, H.Svinarova. Universities innovative development under the globalization conditions. Revista Tempos e Espaços em Educação, 2022, vol. 15, núm. 34, e17608, Enero-Diciembre, ISSN: 2358-1425.
4. С.Н.Молчанов, М.А.Кучук. Состояние и правовое регулирование высшего образования в Италии в эпоху цифровизации // “Международный научно-практический журнал” право и цифровая экономика, №1, январь-март 2023 г.

5. https://planipolis.iiep.unesco.org/sites/default/files/ressources/uzbekistan_education_sector_plan_2013-2017.pdf
6. <https://www.rmk1.lv/wp-content/uploads/2021/01/Strategy-of-Riga-First-Medical-College-of-the-University-of-Latvia-for-2015-2020.pdf>